

## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 5 Issue 01 | pp. 412-416 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH



**Uktamov Xusniddin Faxriddinovich**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

“Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik” kafedrasida

mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslarini boshqarishning ilmiy-nazariy asoslari yoritib berilgan. Shuningdek, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta'sir etuvchi omillar va sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillarning o'rgangan olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari yoritib berilgan. Qolaversa, sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda inson resurslarini boshqarish bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Iqtisodiy xavfsizlik, sanoat korxonalarida, inson resurslari, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi, xavf-xatar, sanoat sohalari.

**Аннотация:** В статье рассматриваются научно-теоретические основы управления человеческими ресурсами в обеспечении экономической безопасности промышленных предприятий. Также представлены научно-теоретические взгляды ученых, исследовавших факторы, негативно влияющие на экономическую безопасность промышленных предприятий и факторы, влияющие на экономическую безопасность промышленных предприятий. Кроме того, даны выводы и рекомендации по управлению человеческими ресурсами в обеспечении экономической безопасности промышленных предприятий. Представлены предложения по экономической безопасности промышленных предприятий.

**Ключевые слова:** Экономическая безопасность, промышленные предприятия, человеческие ресурсы, экономическая безопасность предприятий, риски, отрасли промышленности.

**Abstract:** This article covers the scientific and theoretical foundations of human resource management in ensuring the economic security of industrial enterprises. It also covers the scientific and theoretical views of scientists who have studied the factors that negatively affect the economic security of industrial enterprises and the factors that affect the economic security of industrial enterprises. In addition, conclusions and proposals have been developed on human resource management in ensuring the economic security of industrial enterprises.

**Keywords:** Economic security, industrial enterprises, human resources, economic security of enterprises, risks, industrial sectors.

**Kirish**

Har bir davlatning kelajagi shu yurtning savdo sanoatining rivojlanishi bilan yuksaladi. Ishlab chiqarish sohalari va turli sanoat sohaslarining ko'payishi davlatning moliyaviy tarafdin baquvvat bo'lishiga yordam beradi. Ammo bu sohaslarning rivojlanishida xavfsizlik tizimini nazorat qilish muhimdir. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash korxonaning tahdidlar va xavfli tashqi va ichki omillarga chidamliligiga bog'liq. Tahdidlar yoki xavf-xatarlarning salbiy oqibatlarini oldini olish yoki bunday iqtisodiy xavf-xatarlarning ta'sirini minimallashtirish uchun ish boshida xavfli vaziyatlarni aniqlash va ularning sabablarini bartaraf etish bo'yicha qanday usullar va choralar ko'rilishini oldindan o'ylab ko'rish kerak. Tahdidlar va xavf-xatarlarning salbiy oqibatlarini bartaraf etish usullari va yondashuvlarini tanlashda korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning turli tarkibiy qismlarini hisobga olish kerak.

Olimlarning fikricha, kadrlarning ishlab chiqarishdagi roli to'g'risidagi 4 konsepsiya almashgan:

1. Mehnat resurslaridan foydalanish.

Ushbu konsepsiya XIX asrning oxirlarida XX asrning 60 - yillarida o'z aksini topgan. Ushbu konsepsiyada ishlab chiqarishda inson emas, uning funksiyasi, ish vaqti sarfi va ish haqi bilan o'lchanadigan mehnat ko'rib chiqilar edi.

2. Personalni boshqarish.

Bu konsepsiya 1930-yillarda rivojlangan. Ushbu konsepsiyaning ilmiy asosi bo'lib byurokratik tashkilotlar nazariyasi hisoblanadi. Bunda inson rasmiy rol mansab orqali ko'rib chiqilib, boshqarish ma'muriy mexanizmlar (tamoyillar, usullar, vakolatlar, funksiyalar) orqali amalga oshiriladi.

3. Inson resurslarini boshqarish.

Inson mansab sifatida emas (struktura elementi sifatida emas) to'ldirilmaydigan resurs – uchta asosiy komponentdan (mehnat funksiyasi, ijtimoiy munosabatlar, ishchining ahvoli) iborat tashkilotning ijtimoiy elementi sifatida ko'riladi. Ushbu konsepsiyaning asoschisi bo'lib Yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblanadi.

4. Insonni boshqarish.

Bu konsepsiyaga muvofiq inson tashkilotning asosiy subyekti va boshqaruvning alohida obyekt bo'lib resurs sifatida qaralishi mumkin emas. Insonning istaklari va qobiliyatidan kelib chiqqan holda tashkilotning strategiya va tarkibi tuzilishi kerak. Ushbu konsepsiya asoschilari Yaponiyaning yetakchi olimlari hisoblaniladi. Korxonalar va tashkilot o'z oldiga qo'yilgan maqsadlarni ro'yobga chiqarish uchun turli resurslardan foydalanadi. Ular an'anaviy ravishda uchta asosiy guruhga bo'linadi: natural yoki tabiiy resurslar (fransuz iqtisodchisi J.B.Seyning ta'rifi bo'yicha: yer), moddiy resurslar (kapital) va inson resurslaridan iborat bo'lib, bularni ishlab chiqarish omillari deb ham atash mumkin.

### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

Sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi omillar o'rgangan iqtisodchi olim Tohirov T.I. o'z tadqiqotida tahdidlarni tasniflashning boshqa yondashuvlari haqida umumiy ma'lumot beradi. Muallif tahdidlarni aniqlaydi:

- obyektida (mulk, axborot, texnologiya va boshqalar) joylashgan joyi (ichki va tashqi) bo'yicha;
- Ularning paydo bo'lish xususiyatiga ko'ra (iqtisodiy, huquqiy, ekologik, raqobatbardosh va boshqalar);

- (qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan, muhim va halokatli) yo'qotish yoki zarar miqdori;
  - ehtimollik darajasida (aql bovar qilmaydigan, ehtimoldan yiroq, ehtimol, juda ehtimoligi past);
  - Vaqt bo'yicha masofa (yaqin, uzoq) va boshqa turdagi tahdidlar bo'yicha.
- Fesik P.Yu., Astafieva N.S., Tabachnikova E.V.larning fikriga ko'ra, iqtisodiy ichki manbalardan kelib chiqib tahdidlar quyidagi sabablarga ko'ra yuzaga kelishi mumkin:
- korxonada boshqaruv tizimining nochorligi;
  - xizmatlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berishda texnologiyaga rioya qilmaslik;
  - korxonada ijtimoiy soha va mehnatni tashkil etishga yetarlicha e'tibor berilmaganligi.


Tashqi tadbirkorlik muhitining korxonaga salbiy ta'siri tufayli iqtisodiy tahdidlarning tashqi manbalari yaratilishi mumkin. Bir qator iqtisodchilar yo'qotishlarni minimallashtirish, mulk ustidan nazoratni ta'minlash, axborot va huquqiy xavfsizlikni ta'minlash va korxonaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash masalalarini ko'rib chiqdilar. Rossiyalik olimlardan V.K.Senchagovning nuqtayi nazaridan korxonaning iqtisodiy xavfsizligi omillar kombinatsiyasini o'z ichiga oladigan, faqat ichki holatga bog'liq bo'lmagan, korxonaning tashqi atrof-muhit ta'siri va korxonaning iqtisodiy tahdidlarga ko'radigan chora-tadbirlari majmuyi deb ta'rif beriladi. A.G.Porshnev, Z.P.Rumyanseva va N.A.Salomatinning ta'kidlashicha, iqtisodiy xavfsizlik tashqi muhitdagi o'zgarishlarga o'z vaqtida javob berishdan iborat bo'lib, bu korxonada mavjud sharoitlarga moslashishini ta'minlaydi. L.P.Goncharenko fikriga ko'ra, korxonaning iqtisodiy xavfsizligi tahdidlarning oldini olish va korxonaning barqaror ishlashini ta'minlash uchun resurslardan samarali foydalanish holati sifatida talqin etiladi. Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi sifat va miqdoriy ko'rsatkichlarning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi.

### Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida sanoat korxonalarining iqtisodiy xavfsizlinin taminlash maqsadida ilmiy-tadqiqot faoliyati olib borishning mushohada, induksiya va deduksiya, dinamik qatorlar, analiz va sintez, monografik tadqiq etish, tizimli tahlil, taqqoslash va boshqa usullardan foydalanildi.

### Tahlil va natijalar

Kadrlarni rejalashtirish tashkilotning ehtiyojlarini qondirish, shuningdek, xizmatchilar va umuman, jamiyatning manfaatlarini ta'minlashga yo'naltirilgan. Kadrlarni rejalashtirish, shuningdek, inson omiliga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlashdir. Bu jarayon uch bosqichdan iborat.



**1-rasm. Kadrlarni rejalashtirish inson omiliga bo'lgan ehtiyojni oldindan aniqlash jarayoni**

Kadrlar siyosatini aniq rejalashtirib, ishlab chiqib va amalga oshirmasdan turib tashkilotning barcha muhim bo'limlarini o'z vaqtida kadrlar bilan ta'minlash mumkin emas. Korxonaning xodimga bo'lgan ehtiyojini rejalashtirish mehnat bozoridagi ishchi kuchiga talab va taklif muvozanatiga bog'liq.



**2-rasm. Personal uchun xarajatlar**

Ushbu jarayonni strategiklashtirish aylanma iqtisodiyot texnologiyalarini takomillashtirish yo'nalishlari, innovatsion rivojlanishni intellektuallashtirish imkoniyatlari, ekoinnovatsiyalar, kadrlar tizimini shakllantirish hamda iqtisodiy xavfsizlikni moliyaviy va moddiy-texnik ta'minlashni o'z vaqtida uyg'unlashtirishga yordam beradi. Kerakli ko'rsatkichlarning axborot mazmunini shakllantirish iqtisodiy risklarni o'z vaqtida baholashni ta'minlaydi. Iqtisodiy va energetik tahdidlarni aniqlash va tizimlashtirish davriy iqtisodiyotning innovatsion texnologiyalari tendensiyalarining o'zgarishini prognoz qilishning zarur shartidir.

#### **Xulosa va takliflar.**

Xulosa qilib ta'kidlash kerakki, jahon iqtisodiy rivojlanishining hozirgi holatiga jamiyat xo'jalik faoliyatining har qanday sohasidagi va ishlab chiqarish munosabatlarining har qanday darajasida iqtisodiy xavfsizlik muammolarining mavjudligi xosdir. Bularning barchasi to'la darajada respublikamizdagi vaziyatga ham taalluqli. Shuning uchun, bizningcha, jamiyatimiz iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ustunligi umuminsoniy qadriyatlar bilan ham, O'zbekistonning milliy xususiyatlari bilan ham ajralib turadigan ishlab chiqarish munosabatlari tizimining barcha tarkibiy qismlarida saqlanib qoladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Komolov, O.O. (2020) "Deglobalization and the "Great stagnation"." International critical thought 10(3): 424-439.
2. Dwijendra, N. K. A., Jalil, A. T., Abed, A. M., Bashar, B. S., Al-Nussairi, A. K. J., Hammid, A. T., ... & Uktamov, K. F. (2022). Improving the transition capability of the low-voltage wind turbine in the sub-synchronous state using a fuzzy controller. Clean Energy, 6(4), 682-692.
3. Уктамов Х.Ф. Саноат корхоналари иқтисодий хавфсизлигини таъминлаш йўллари. «О'zbekistonda ilm- fan va ta'lim masalalari: muammo va yechimlar» mavzusidagi 33-son. Konferensiya materiallari. 171-173 б.

[https://t.me/online\\_conference\\_materials](https://t.me/online_conference_materials)

4. Hizam-Hanafiah, M.; Soomro, M.A. The Situation of Technology Companies in Industry 4.0 and the Open Innovation. *J. Open Innov. Technol. Mark. Complex.* 2021, 7, 34. [CrossRef].

5. Saucedo-Martínez, J.A.; Pérez-Lara, M.; Marmolejo-Saucedo, J.A.; Salas-Fierro, T.E.; Vasant, P. Industry 4.0 framework for management and operations: A review. *J. Ambient Intell. Humaniz. Comput.* 2018, 9, 789–801. [CrossRef]

6. Уктамов Х.Ф. Корхоналар иқтисодий хавфсизлигини баҳолашнинг кўрсаткичлар тизими “Ўзбекистон молия бозорини ривожлантиришда инвестиция фондларининг жозибadorлигини ошириш” мавзусида республика илмий-назарий конференцияси 2020 йил 29-Апрел. 461-463 б.

7. Skordoulis, M.; Ntanos, S.; Kyriakopoulos, G.L. Environmental Innovation, Open Innovation Dynamics and Competitive Advantage of Medium and Large-Sized Firms. *J. Open Innov. Technol. Mark. Complex.* 2020, 6, 195. [CrossRef]

8. Mittal, S.; Khan, M.A.; Romero, D.; Wuest, T. A critical review of smart manufacturing & Industry 4.0 maturity models: Implications for small and medium-sized enterprises (SMEs). *J. Manuf. Syst.* 2018, 49, 194–21

Copyright: © 2025 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

